

"KO'NGIL" KOMPLEMENTLI FRAZELOGIZMLARDA KO'P MA'NOLILIK VA SHAKLDOSHLIK

Rixsiyeva Arofat G'ofurovna

Amaliy fanlar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936945>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi "ko'ngil" komplementli frazeologizmlarda ko'p ma'nolilik va shakldoshlik munosabatlarining yuzaga kelish asoslari tadqiq etiladi. Mazkur hodisalarni chegaralashda ma'nolararo semantik bog'lanish, frazeologik obrazning saqlanish darajasi, komponentlar tarkibi, grammatik qurilish, sintaktik valentlik va kontekstual voqelanish mezonlariga tayaniladi. Tahlilda bir shakl doirasidagi ma'no taraqqiyoti bilan shaklan yaqin, semantik jihatdan mustaqillashgan birliklar o'rtasidagi farqlar aniqlashtiriladi.

Kalit so'zlar: *"ko'ngil" komplementli frazeologizmlar, frazeologik polisemiya, frazeologik omonimiya, obrazli asos, sintaktik valentlik.*

Abstract. The article examines the factors underlying polysemy and homonymy in Uzbek phraseological units containing the component "ko'ngil". The distinction between these phenomena is established on the basis of semantic relatedness between meanings, the degree to which the phraseological image is preserved, component structure, grammatical organization, syntactic valency, and contextual realization. The analysis clarifies the difference between the semantic development of meanings within a single phraseological form and formally similar units that have acquired semantic independence.

Keywords: phraseological units containing the component "ko'ngil", phraseological polysemy, phraseological homonymy, figurative basis, syntactic valency.

Аннотация. В статье исследуются основания формирования полисемии и омонимии во фразеологических единицах узбекского языка с компонентом "ko'ngil". Разграничение данных явлений осуществляется с учётом семантической связи между значениями, степени сохранности фразеологического образа, компонентного состава, грамматической структуры, синтаксической валентности и контекстуальной реализации. В ходе анализа уточняются различия между семантическим развитием значений в пределах одной фразеологической формы и формально близкими единицами, приобретшими семантическую самостоятельность.

Ключевые слова: *фразеологические единицы с компонентом "ko'ngil", фразеологическая полисемия, фразеологическая омонимия, образная основа, синтаксическая валентность.*

Frazeologik semantikada ko'p ma'nolilik va shakldoshlikni chegaralash frazemaning lug'aviy maqomi, ma'no taraqqiyoti va struktur xususiyatlarini birgalikda baholashni talab etadi. Frazeologik shaklning barqarorligi turli ma'nolarning bitta frazema doirasida rivojlanganini yoki shaklan mos mustaqil frazemalarga mansubligini bevosita ko'rsatmaydi. Shu sababli mazkur hodisalar frazemalar o'rtasidagi semantik aloqa, obrazli asos, grammatik tuzilish va nutqiy qo'llanish xususiyatlari asosida farqlanadi. Y.Ivanov frazeologizmlarning paradigmatic xususiyatlarini ularning lug'aviy tabiati bilan bog'laydi [5, 254]. R.Ayupova frazeologik lug'atlarda semantik munosabatlarning izchil yoritilishi frazema ma'nolarini aniq chegaralash va tavsiflash imkonini berishini qayd etadi [1, 156–160].

Frazeologik ko'p ma'nolilikda bitta frazemaga mansub ma'nolar o'rtasida umumiy semantik asos, obrazli uzviylik yoki izchil ma'no taraqqiyoti saqlanadi. Frazeologik shakldoshlik bir xil shaklga ega frazemalarning alohida semantik markazlar asosida shakllanishi bilan belgilanadi. Shakldosh frazemalar komponentlarining grammatik shakli, sintaktik valentligi, leksik qurshovi va qo'llanish doirasi bilan ham farqlanishi mumkin. D.Dobrovolskiy idiomalar semantikasini tahlil qilishda obrazli asos, ma'no yaqinligi va nutqiy qo'llanish xususiyatlarining o'zaro nisbatini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [4, 139–154].

“Ko'ngil” komponentli frazeologizmlar ko'p ma'nolilik va shakldoshlik munosabatlarini o'rganish uchun boy manba hisoblanadi. “Ko'ngil” leksemasining hissiy holat, istak, niyat, fikr, xotira, mayl va shaxslararo munosabatlarni ifodalash imkoniyati frazeologik ma'noning turli yo'nalishlarda rivojlanishiga asos yaratadi. Shaklan bir xil yoki yaqin frazemalar ma'nolari o'rtasidagi aloqa ayrim hollarda yaqqol saqlanadi, boshqa holatlarda esa semantik mustaqillashuv kuzatiladi. Frazemalarning ko'p ma'noli yoki shakldosh sifatidagi maqomi ma'nolararo bog'lanish, obrazli asosning saqlanish darajasi, komponentlar tarkibi, grammatik qurilish, sintaktik valentlik va kontekst asosida belgilanadi.

Frazeologik birlikda shakl va ma'no munosabati so'z birikmasidagidan farq qiladi. Frazema tarkibiy shaklga ega bo'lsa-da, uning ma'nosi komponentlarning to'g'ridan to'g'ri lug'aviy yig'indisidan yuqori darajada shakllanadi. Ayni paytda komponentlar umumiy ma'no tarkibida o'z obrazli va assotsiativ izini saqlaydi. Sh.Rahmatullayev frazeologik ma'noni ibora tarkibidagi leksemalar ma'nosi ustida shakllangan umumlashgan ma'no sifatida tavsiflaydi [7, 4-5].

A.Baranov va D.Dobrovolskiy frazeologizm semantikasida aktual ma'no bilan ichki formani farqlaydi. Aktual ma'no muayyan kontekstni anglash uchun zarur bo'lgan mazmunni ifodalasa, ichki forma esa frazemaning obrazli asosini saqlaydi [2, 21-22]. Ko'p ma'noli frazemada aktual ma'no kontekstga qarab o'zgarishi mumkin, ammo ma'no tarmoqlarini birlashtiruvchi obraz yoki semantik belgi saqlanib qoladi. Shakldosh birliklarda esa obrazli asos zaiflashadi yoki mustaqil yo'nalishlarga ajraladi.

Frazeologik ko'p ma'nolilik bir shaklning bir necha o'zaro bog'langan ma'noda qo'llanishidir. G.Bichurina frazeologik polisemiyani bir frazeologik shakl doirasida semantik tarmoqlanish yuzaga kelishi bilan izohlaydi [3]. Ma'nolarning har biri alohida nutqiy vazifaga ega bo'lishi mumkin, lekin ular umumiy ma'no manbasidan uzilmaydi. Frazeologik shakldoshlikda esa tashqi shaklning o'xshashligi birliklarni yagona semantik tizimga birlashtirish uchun yetarli bo'lmaydi. S. Laukhina shakldosh frazeologik birliklarning semantik mustaqilligi va qo'llanish doirasidagi farqlarini alohida mezon sifatida ko'rsatadi [6].

Ko'p ma'nolilik va shakldoshlikni farqlashda bir necha belgi muhim. Avvalo, ma'nolar o'rtasida umumiy semantik belgi mavjudligi hisobga olinishi kerak. Keyingi mezon obrazli asosning saqlanishidir. Bir ma'no ikkinchisidan metaforik yoki metonimik ko'chish orqali kelib chiqqan bo'lsa, ko'p ma'nolilik haqidagi xulosa asosli bo'ladi. Sintaktik valentlik ham muhim: frazemaning turli ma'nolari bir xil yoki yaqin ishtirokchilar tarkibini talab qilsa, ularning bog'liqligi kuchayadi. Valentlik va grammatik qurilish keskin o'zgarsa, mustaqil frazeologik birliklar yuzaga kelishi mumkin. Keyingi mezon kontekstdir. Frazemaning qaysi ma'nosi faollashgani uning nutqiy qurshovi orqali aniqlanadi. *Ko'ngli aynidi* frazeologizmi ko'p ma'nolilikning aniq namunalaridan biridir. Birinchi ma'noda u ovqat, hid yoki boshqa fiziologik ta'sir tufayli behuzur bo'lishni bildiradi. Ikkinchi ma'noda shaxs, hodisa yoki xatti-harakatdan

jirkanish, uni ruhiy va axloqiy jihatdan qabul qilmaslik ifodalanadi. Bir qarashda bu ma'nolar turli kategoriyaga mansubdek ko'rinadi: birinchisi tana holati, ikkinchisi ruhiy-estetik munosabat bilan bog'liq. Ularni "qabul qilmaslik" ma'nosi birlashtiradi. Dastlab organizmning ovqat yoki hidni qabul qilmasligi ifodalangan bo'lsa, keyinchalik shu model shaxs yoki hodisaga nisbatan salbiy munosabatni bildirishga ko'chgan. Fiziologik reaksiya ruhiy bahoga asos bo'lgan. *Ko'ngli ozdi* frazeologizmi ham bir necha yaqin ma'noda ishlatiladi. U ochlik yoki holsizlikdan behuzur bo'lish, bosh aylanishi, hushdan ketishga yaqinlashish kabi holatlarni bildiradi. Ushbu ma'nolarning barchasi organizm va ruhiy holat muvozanatining buzilishi atrofida birlashadi:

Cholning ovozi gumburlab chiqar, unga sayin ko'nglim ozib, boshim aylanar edi. (O'. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*. 57-bet)

Kontekstda *ko'nglim ozib* va *boshim aylanar edi* birliklari bir-birini izohlaydi. Frazema behushlikning o'zi bilan chegaralanmay, unga olib boruvchi umumiy behuzurlik holatini ifodalaydi. Shu sababli uning turli lug'aviy izohlari alohida shakldosh birliklar sifatida emas, bitta frazemaning ma'no tarmoqlari sifatida baholanadi.

Ko'nglidan chiqarmoq frazeologizmining ma'no tizimi murakkabroq. U, avvalo, biror fikr, shaxs yoki voqeani butkul unutish, o'ylamay qo'yishni bildiradi. Boshqa bir ma'noda ko'ngildagi g'ubor, shubha yoki ranjishni yo'qotish anglashiladi. Yana bir qo'llanishida biror narsani o'z roziligi bilan berishga ichdan rozi bo'lish mazmuni yuzaga chiqadi. Ma'nolarning obyektlari turlicha: xotira, ranjish, shubha yoki moddiy narsa. Ularni "ko'ngil"ning ichki makon sifatidagi tasavvuri va shu makondan muayyan mazmunni chiqarish obrazi birlashtiradi. Unutishda fikr xotiradan chiqariladi, ranjishni yo'qotishda salbiy kechinma ichki olamdan ketadi, rozilik ma'nosida esa shaxs narsa bilan bog'liq ichki egalik hissidan voz kechadi. Uchinchi ma'no bir oz uzoqlashgan bo'lsa ham, "ichki makondan chiqarish" modeli saqlanadi.

Ko'ngliga kelmoq frazeologizmi fikr, ranjish va xohish bilan bog'liq ma'nolarda qo'llanadi. Birinchi ma'noda u "xayoliga kelmoq, o'zicha o'ylamoq" mazmunini bildiradi. Ikkinchi ma'noda aytilgan gap yoki qilingan harakatni og'rinib qabul qilish, ranjish anglashiladi:

"Akaxoningiz dongdorlardan bo'lsalar, men esam urilib chiqqan xom atala bo'lsam, ko'ngillariga kelmasmikin?" deb piching qildi. (T. Malik. *Talvasa*. 25-bet)

Uchinchi ma'noda *ko'ngliga kelmoq* "xohlamoq, istamoq" mazmuniga yaqinlashadi. Fikr, ranjish va istak ma'nolari bir qarashda uzoqdek ko'rinsa ham, ularning barchasida "ko'ngil" insonning ichki reaksiyasi yuzagakeladigan markaz sifatida tasavvur qilinadi. Fikr ham, og'rinish ham, xohish ham tashqi ta'sirning ichki ruhiy javobi sifatida "ko'ngilga keladi". Umumiy obrazning saqlanishi bu ma'nolarni bir polisemik frazema doirasida baholashga imkon beradi.

Ko'ngliga tugmoq frazeologizmi aytishni mo'ljallab qo'yish, biror ishni bajarishga ahd qilish, fikran belgilash, niyat yoki ginani unutmay saqlash ma'nolarida ishlatiladi. Frazemadagi *tugmoq* fe'li jismoniy predmetni bog'lashni anglatmaydi. U fikr, reja, niyat yoki xotirani ichki makonda mahkamlash obrazini yuzaga keltiradi. Aytishni rejalash bilan biror ishni bajarishga ahd qilish o'rtasida ma'no farqi bor, ammo har ikki holatda ichki qaror shakllanadi. Gina yoki rejaning saqlanishida esa shu qarorning vaqt davomida yo'qolmasligi ta'kidlanadi.

Ko'ngil bermoq ham ko'p ma'noli birlik sifatida qaralishi mumkin. U shaxsga mehr yoki muhabbat qo'yish, ishga ixlos bilan kirishish, biror narsa yoki faoliyatga e'tibor qaratish ma'nolarini bildiradi. Har bir ma'noda yo'nalish obyekti o'zgaradi: shaxs, ish, faoliyat yoki

predmet. Umumiy semantik asos esa ichki moyillikning muayyan obyektga qaratilishidir. Shu sababli “sevmiq”, “ixlos bilan shug’ullanmoq” va “e’tibor bermiq” ma’nolari butunlay alohida birliklar emas, bitta frazemaning turli nutqiy sohalarda faollashgan ma’no tarmoqlaridir.

Frazeologik shakldoshlik lug’aviy shakli, komponent tarkibi va struktur modeli aynan mos frazemalarning mustaqil ma’nolarni ifodalashi bilan belgilanadi. Bunday frazemalar alohida semantik markaz, nutqiy vazifa va qo’llanish doirasiga ega bo’ladi. Ularning ma’nolari o’rtasida sinxron semantik bog’lanish aniqlanmasa, aynan bir shakl ikki mustaqil frazema sifatida tavsiflanadi. *Ko’ngil ochmoq* frazemasida lug’atda ikki shakldosh frazema sifatida ajratilgan. *Ko’ngil ochmoq I* “xursandchilik qilmoq, dildushlik qilmoq” ma’nosini anglatadi [8, 277]. Ushbu frazema kishining kayfiyatini ko’tarish, ruhiy siqqlikdan chiqish yoki vaqtini maroqli o’tkazish bilan bog’liq holatlarni ifodalaydi. Uning semantik markazini xush kayfiyat va ruhiy yengillik tashkil etadi. *Ko’ngil ochmoq II* shaxsning dardi, siri yoki ichki kechinmalarini boshqa kishiga aytishini bildiradi. Lug’atda mazkur frazema *yuragini ochmoq* shakliga havola qilinib, ichki kechinmalarni oshkor etish va samimiy suhbatga kirishish ma’nosida izohlangan [8, 573]. Mazkur frazemalarning lug’aviy shakli bir xil, semantik tayanchi esa farqlidir. *Ko’ngil ochmoq I* dildushlik va kayfiyatning ko’tarilishi bilan bog’lanadi; *ko’ngil ochmoq II* kechinmalarni oshkor etish va ruhiy yaqinlashishni anglatadi. Ularning sintaktik qurshovi ham semantik mustaqillikni aniqlashtiradi. Birinchi frazema hordiq, ko’ngilochar faoliyat yoki kayfiyatga ta’sir etuvchi vosita bilan qo’llanadi. Ikkinchi frazema esa kechinmalar yo’naltirilgan shaxs hamda aytilayotgan dard, sir yoki ichki fikr bilan mazmuniy munosabat hosil qiladi. *Ochmoq* komponentiga xos umumiy obrazli fon mazkur frazemalarning shakliy tarixida muayyan yaqinlik mavjudligini ko’rsatadi. Sinxron qo’llanishda esa ularning bevosita ma’no taraqqiyoti sifatidagi aloqasi sezilmaydi: har bir frazema alohida semantik markaz va qo’llanish tizimiga ega.

Aytish mumkinki, “ko’ngil” komponentli frazemalarda ma’no taraqqiyoti, asosan, bitta obrazli modelning turli nutqiy vaziyatlarda qayta talqin qilinishi orqali kuzatiladi. Shu jarayon frazema ma’nolarining kengayishi, yangi mazmuniy yo’nalishlarning yuzaga kelishi va ular o’rtasidagi ichki bog’lanishning saqlanishini ta’minlaydi. Frazeologik ko’p ma’nolilikni aynan mana shu izchil semantik rivojlanish belgilaydi.

Frazeologik shakldoshlik bir xil shaklda voqelangan ma’nolarning sinxron tizimda mustaqil semantik markazlarga ajralishi bilan belgilanadi. Ma’nolar o’rtasidagi umumiy sema, obrazli asos va hosila munosabati tiklanmasa, ular alohida frazemalar sifatida tavsiflanadi. Mazkur mezonlar “ko’ngil” komponentli frazemalarda semantik tarmoqlanish bilan omonimik ajralishni aniq chegaralash imkonini beradi. Natijada frazemaning ma’no tarkibi, ma’nolararo bog’lanish darajasi hamda mustaqil frazemalarning lug’aviy maqomi izchil belgilanadi. Ko’p ma’nolilik va shakldoshlik o’rtasidagi chegara frazeologik semantikani tavsiflash va lug’at maqolalarini tuzishning asosiy nazariy mezonlaridan birini tashkil etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Аюпова Р.А. Фраzeологическая парадигматика в словарной статье // Ученые записки Казанского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2008. – Т. 150, кн. 6. – С. 156–160.
2. Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Принципы семантического описания фразеологии // Вопросы языкознания. – 2009. – № 6. – С. 21–34.

3. Бичурина Г.И. Фразеологическая полисемия в русском и татарском языках: дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 1998. – 171 с.
4. Dobrovol'skij D. Idioms: On Paradigmatic Semantic Relations // Wiener Slawistischer Almanach. Sonderband 69. – 2007. – P. 139–154.
5. Иванов Е.Е. О различии отношений фразеологических и афористических единиц к слову // Славянская фразеология в синхронии и диахронии. – Гомель: ГГУ им. Ф. Скорины, 2011. – Вып. 1. – С. 254–260.
6. Лаухина С.С. Омонимия фразеологизмов и терминологических словосочетаний в современном русском языке: дис. ... канд. филол. наук. – Омск, 2006. – 216 с.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 406 б.
8. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.